

O'zbekiston aholisini don va don mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun yuqori sifatli, zararkunanda va kasalliklarga chidamli urug'lik tizimini tashkil etish, boshqoqli don ekinlarini yuqori agrotehnika asosida parvarish qilish, o'g'itlash va sug'orish ishlarini o'z vaqtida o'tkazish bilan bir qatorda g'alla ekinlariga zarar keltiruvchi zararli organizmlarga qarshi kurash chora-tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Arpaga zarar yetkazadigan suruvchi zararkunandalari orasida shiralar, tripslar va zararli xasvalar - katta zarar etkazadi. Bular o'ziga xos hasharotlar guruhiga mansub bo'lib, ushbu zararkunandalar zarari natijada voqtda kurash chorasini olib borilmasa, ba'zi hollarda hosilning katta qismi yuqolishiga olib kelishi ham mumkin.

Qishloq xo'jalik ekinlariga zararkunandalarning ko'plab tushishi hosildorlikni va uning sifatini keskin pasayishiga olib keladi.

Arpa un va non yetishtirishdagi tabiiy maxsulot hisoblanadi. Ko'pchilik mamlakatlardagi arpa axoli oziq-ovqatining asosini tashkil qiladi.

Chidamli navlar qishloq xo'jaligi ekinlarini hasharotlardan himoya qiluvchi asosiy vosita hisoblanib, ular hasharotlar soni va miqdoriga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Chidamli navlar hasharotlarning nasl qoldirish xususiyatini ham chegaralab turadi. Shiralarning boshqoqli don ekinlariga keltiradigan zararining ko'p yoki kam bo'lishi shu ekinlarning shiralarga chidamliligiga ham bog'liq. Shiralar asosan boshqoqlarning yuqori yarmini ko'proq zararlaydi. Bahorda ekilgan g'alla boshqoqlarida esa havoning nisbiy namligi yuqori bo'lganda shiralar boshqoqning qiltirlarida oziqlansa, namlik kam hududlarda shiralar arpaning gullari ichigacha kirib boradi va ularning hosilini yo'qotadi.

Arpazorlarning shiralar bilan zararlanishi oqibatida yo'qotiladigan hosil miqdori ekin maydonidagi o'simliklarning zichligiga ham bog'liqdir. Har bir metr kvadrat g'allazorda 300 tup arpa bo'lsa va har bir boshqoqli o'rtacha 10 donadan shira zararlaganda yo'qotilgan hosil miqdori 1m² da 15 gr yoki 1,5 s/ga bo'lishi aniqlangan.

Boshqoqli don ekinlarida g'alla shiralari ekinlarni 50 % zararlaganda arpa nay tortish fazasiga kirganda bir poyaga 8-10 dona, sut pishish fazasida esa bir poyaga 25-30 dona shira to'g'ri kelsa iqtisodiy zarar mezonini bo'ladi.

Sh.T.Xodjaev, A.A.Xakimov (1991) lar ko'rsatishicha shiralarning zarar keltirish darajasi ekinlarning qaysi fazasida zararlanganligiga bog'liq. O'simlik shiralar bilan qancha kech zararlangansa, yo'qotilgan hosil ham shuncha kam bo'ladi. Boshqoqli don ekinlarining g'alla shiralari ta'sirida nobud bo'ladigan hosil miqdori zararkunandaning ekinga tushish vaqtiga qarab turlicha bo'ladi, ya'ni g'alla ekinlari shiralar bilan qanchalik erta zararlangansa va ular soni qanchalik zich bo'lsa hosil shunchalik ko'p nobud bo'ladi.

Katta g'alla shirasi Rossiya sharoitida tuxumlik fazasida qishlaydi. Respublikamizning janubiy hududlarida bu zararkunanda ko'proq urg'ochi partenogenetik yetuk zoti hoida qishlashini, shimoliy hududlarida tuxumlik va urg'ochi partenogenetik yetuk zoti fazalarida qishlab chiqishini aniqlagan.

Xulosa. Shiralar tarqalgan arpazorlarni nazorat qilish shuningdek, zararkunandalarga qarshi agrotehnika tadbirlarini o'z vaqtida va yuqori sifatli qilib o'tkazish, xususan qator oralariga ishlov berish, kuzgi yer xaydovini sifatli qilib, o'tkazish, yaxob suvlarini berish, meneral va maxalliy o'g'itlardan samarali foydalanish, begona o'tlar va o'simlik qoldiqlarini yo'qotish ham zarur tadbirlardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Alimuxamedov S.S., Xayitov E.I. G'alla shiralari va ularga qarshi samarali kurash usullari/ O'zbekistonda bug'doy seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish texnologiyasiga bag'ishlangan birinchi milliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2004.- B.
2. Po'latov Z., Xayitov E. Boshqoqli don ekinlaridagi shiralarga qarshi kimyoviy dorilarning ta'siri// O'simliklarni zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilishning rivojlanish istiqbollari Imiy- amaliy konf. ma'ruzalarining tyozislari. - Toshkent, 2001. - B. 46-47.
3. Xo'jaev Sh.T., Xolmurodov E.A. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent. – 2014.
4. Xalilov K. va b. G'alla, paxta, sabzavot, poliz, bog' ekinlari zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurash usullari. – Toshkent: Fan, 2007.

УЎТ: 632.7.

БУҒДОЙ ТРИПСИНИНГ ТАРҚАЛИШИ, ЗАРАРИ ВА БИОЭКОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Содиқова Нигора Азамжоновна, магистрант,
Аблазова Мохичеҳра Миракбаровна, қ.х.ф.ф.д., доцент,
Рўзиқулов Давлатбек Назаралиевич, катта ўқитувчиси,
Тошкент давлат аграр университети.

Аннотация: Мазкур мақолада трипсларнинг (*Thysanoptera*) бир неча турлари республикамиз галлазорларида кенг тарқалган турлари ва бу трипсларнинг биоэкологияси, тур таркиби, турларининг тарқалиш ареаллари, уларнинг жиддий зарар келтириши даражаси келтирилган.

Калит сўзлар: галла, зараркунанда, трипс, дон, сўрувчи, ўсимлик.

КИРИШ: Ғаллачиликда етиштирилаётган ҳосилнинг бир қисми зараркунандалар таъсирида йўқотилмоқда. Тошкент, Хоразм, Қорақалпоғистон республикаси ва Фарғона водийсининг бир қатор вилоятларида ғалланинг зараркунандалари ҳосилга зарар етказётганлиги кузатилмоқда. Бугунги кунда

бу йўналишдаги олиб бориладиган илмий тадқиқот ишлари ўта долзарб ҳисобланади.

Республикамиз шароитида ғаланинг асосий зараркунандалари тур таркиби, биологик хусусиятлари, паразит энтомофаглари, биоэкологияси ва зараркунандалар сонини

камайтиришдаги аҳамияти ўрганилган.

Ғаллага экинларига сезиларли зарар келтирадиган ҳашаротлардан сўрувчи зараркунандалар бўлиб, улар ўсимлик ширасини сўриб, уни ривожланишдан ортада қолдиради ва ҳосилдорликни пасайтириб, сифатини бузади. Ўсимликларда ҳар хил юқумли касалликлар (айниқса вирусли) тарқалишига сабабчи бўлади. Айрим ҳашаротларнинг ширали чиқиндилари (ўсимлик битлари ва оққанот) ўсимликни барги ва бошқа қисмларни ифлослантириши туфайли сапрофит замбуруғларнинг ривожланиши учун қулай муҳит яратиб, фотосинтез жараёнини издан чиқаради.

Бўғдой трипси тупроқнинг юқори қатламида кузги бўғдой пояларида личинка фазасида қишлайди. Баҳорда тупроқ ҳарорати 8-9°C ва ундан юқори бўлганда личинкалар харақатланиб қишлоқдан чиқади.

Трипслар трипслар оиласи вакилларининг жаҳон фаунаси анча катта бўлиб 4500 га яқин турлари бор, улардан ҳамдўстлик давлатларида 300 тури, Марказий Осиёда эса 200 га яқин турлари учрайди.

Ғалла экинларига ҳошияқанотлилар ёки трипслар (*Thysanoptera*) туркумининг флеотрипидлар (*Phloeothripidae*) оиласига мансуб бир неча турдаги ҳашаротлар зарар келтиради. Буларнинг орасида кенг тарқалган ва зарари кучлиси бўғдой трипси (*Haplothrips tritici* Kurd.) дир. Бундан ташқари, тамаки трипси (*Thrips tabaci* Lind.), сули трипси (*Stenothrips graminum* Uzel.), жавдар трипси (*Limothrips denticornis* Hal.) ва пучгул трипси (*Haplothrips aculeatus* F.) ҳам ғалла экинларига зарар келтиради. Ушбу зараркунандалар Ўрта Осиё,

Қозоғистон ва Шарқий Сибирнинг жанубий туманларида кенг тарқалган.

Бўғдойнинг сўрувчи зараркунандалари устида ўтказган илмий тадқиқот ишларида олимлар бўғдой трипси ривожланиши, тарқалиши ва кўпайиши қулай бўлган жойлар сифатида Украина, Марказий қоратупроқ вилоятлари ва Шимолий Кавказ, Самара вилояти ғаллазорларини қайд этишган. Сибир бўғдойзорларида ўтказган тадқиқотларида бўғдой трипси экинга сезиларли зарар етказиб турганини аниқлашган.

Бўғдой трипси ва пучгул трипси бўғдой, арпа ва бошқа бошоқли экинларнинг ихтисослашган зараркунандаси бўлиб, улар Марказий Осиё ва Европада кенг тарқалган.

Бўғдой трипсини ўрганиш устида илмий-тадқиқот ишларини олиб бораётган олимлар Қозоғистон ғаллазорларига сезиларли зарар етказиб турган бўғдой трипсини хавфли зараркунанда сифатида алоҳида таъкидлашган.

Бўғдойда бўғдой трипсини тарқалиши бўйича кузатувлар олиб бораётган мутахассислар Шимолий Қозоғистон ва Ғарбий Сибирда кенгроқ ареалда тарқалганлигини алоҳида қайд қилиб ўтишган. Маълумотларга қараганда бўғдой трипсини Ўзбекистон иқлим шароитида ҳамма ҳудудлардаги ғаллазорларда учратиш мумкин.

Хулоса шуки, ғалла зараркунандаларини тарқалишини, биологик хусусиятларини, зарарини, уларнинг сонини камайтирувчи энтомофаглари ўрганиш ва зараркунандага қарши курашиш учун ҳар хил вариантларда тажриба қўйиш зарур. Кураш чораларини такомиллаштириш ва самарали препаратларни энг самаралиларини танлаб олиш талаб этилади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Алимухамедов С.С., Хайитов Э.И. Ғалла ширалари ва уларга қарши самарали кураш усуллари/ Ўзбекистонда бўғдой селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш технологиясига бағишланган биринчи миллий конференция материаллари. – Тошкент, 2004.- Б. 352-354.
2. Пўлатов З., Хайитов Э. Бошоқли дон экинларидаги шираларга қарши кимёвий дориларнинг таъсири// Ўсимликларни зараркунанда, касаллик ва бегона ўтлардан химоя қилишнинг ривожланиш истиқболлари илмий- амалий конф. маърузаларининг тезислари. - Тошкент, 2001. - Б. 46-47.
3. Хўжаев Ш.Т., Холмуродов Э.А. Энтомология, қишлоқ хўжалик экинларини химоя қилиш ва агротоксикология асослари. Тошкент. – 2014.
4. Халилов К. ва б. Ғалла, пахта, сабзавот, полиз, боғ экинлари зараркунандалари ва касалликларига қарши кураш усуллари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.93-125.
5. Хамраев А.Ш., Хасанов Б.О., Очилов Р.О., Азимов Ж.А. ва бошқ. Ғалла ва шолини зараркунанда, касалликлар ва бегона ўтлардан химоя қилиш. -Тошкент, 1999 – 122 б.

УЎТ: 632.633.854.78:631.57.

КУНГАБОҚАРНИНГ ЗАРАРЛИ ЭНТОМОФАУНАСИ

Туфлиев Нодирбек Хушвақтович, қишлоқ хўжалик фанлари доктори,
Юлпиев Фахриддин Нормуротович, мустақил тадқиқотчи,
Дусманов Илҳом Самиддинович, докторант,
Шарипов Баҳодир Норбобоевич, магистр,
Тошкент давлат аграр университети.

Аннотация: В этом статье изучено основной видовой состав поврежд степень и их систематики растение подсолнечники которая выращивается в нашей Республике

Ключевые слова: Подсолнечник, вредносная энтомофауна, вредители, полужестокрылые, чешуекрылые, прямокрылые.

Abstract: In that article is learned the main species composition, and damage degrees (grade) pests of the plant sunflower which is growing in our Republic.

Key words: sunflower, harmful entomofauna, hemiptera, lepidoptera, orthopterans.

Кунгабоқар бошқа қишлоқ хўжалик экинлари сингари кўплаб зараркунанда ва касалликлар билан зарарланади. Бу

зарарли организмлар оммавий кўпайган вақтда олинадиган ҳосил 40 – 42% гача нобуд бўлиши мумкин.Шунинг учун ҳам